



“Barakali million” reklama aksiyasini o‘tkazish va unda ishtirok etish shartlari

1. Ushbu shartlar “Barakali million” reklama aksiyasi (keyingi o‘rinlarda - Aksiya)ni o‘tkazish va unda ishtirok etish tartibini belgilaydi.

2. Aksiyaning amal qilishi davri – 2023-yil 7-dekabrddan 2024-yil 5-yanvargacha qadar.

3. Aksiya “O‘zMobayl” filialining GSM standartidagi mobil aloqa xizmatlaridan foydalanuvchi, 18 yoshga to‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan abonentlar - jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin.

4. Quyidagilar Aksiya ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi:

- Aksiya o‘tkazilishi davrida “O‘zbektelekom” AK bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari;
- yuridik shaxslar.

5. Sovrinli jamg‘arma:

Sovrinli jamg‘arma (pullik sovrin)

Sovrin, so‘m	Davr	Miqdori, dona	Jami, so‘m
10 000 000	Har kunlik sovrin	30	300 000 000
		Jami:	300 000 000

6. Aksiya shaxsiy hisobidagi balansini 10 000 so‘m va undan ortiq bo‘lgan summaga to‘ldirgan abonentlar ishtirok etishi mumkin.

7. Shaxsiy hisobning har bir to‘ldirishi uchun (10 000 so‘mga karrali summa uchun) abonentga noyob ID-kod beriladi (har bir ID-kod = 10 000 so‘m = sovrin olish uchun bitta imkoniyat).

8. Balans bir marotaba, masalan, 35 000 so‘m miqdorida to‘ldirilganda, abonentga 3 ta ID-kod beriladi (bitta to‘lov = ID kodlar soni har bir to‘liq 10 000 so‘m to‘lovga teng).

9. Sovrin har kuni o‘ynaladi, abonent to‘ldirgan kuni tayinlangan ID-lar ertasi kuni o‘ynaladi.

10. Hisob to‘ldirilganda, abonentga ID-kodlar soni ko‘rsatilgan SMS-xabar yuboriladi (bitta ID-kod = sovrin olish uchun bitta imkoniyat):

Shaxsiy hisobning har bir to‘ldirishi abonentning sovrin yutib olish imkoniyatini oshiradi.

Agar abonent Aksiya davrida o‘z hisobini bir necha marta to‘ldirsa, uning raqami mos ravishda bir necha marta sovrin olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Aksiya haqida ma’lumot olish buyrug‘i - *500*4#.

Abonentning shaxsiy hisobi to'ldirilishi vaqtida abonent TP bo'yicha abonent to'lovini va raqam uchun ijara to'lovi/muddatli to'lovni amalga oshirgan bo'lishi lozim. Raqam faol holatda bo'lishi kerak.

11. ID-kod 00000001 dan 99 999 999 gacha bo'lgan 8 xonali raqam formatida beriladi (tartib bo'yicha beriladi).

12. Aksiyada "M2M", "Xizmat" seriyali va UZTELECOMning boshqa telekommunikatsiya xizmatlari doirasida yagona tarif rejasiga kiritilgan konvergent tarif rejalarini o'z ichiga olgan tarif rejalaridan tashqari amaldagi va arhivdagi tarif rejalariga ulangan abonentlar, jismoniy shahslar ishtirok etadilar.

13. Aksiya o'tkazilishi va unda ishtirok etish shartlari haqida tegishli ma'lumotlar Kompaniyaning www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda boshqa aloqa vositalari orqali e'lon qilinadi.

14. "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi Aksiya shartlariga o'zgartirish kiritish huquqiga ega va ushbu haqda tegishli ma'lumotlar Kompaniyaning www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda boshqa aloqa vositalari orqali ma'lum qilinadi. Ishtirokchilar Aksiya shartlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilganligini Kompaniyaning mazkur rasmiy veb-sayti orqali mustaqil ravishda tekshirib turishlari mumkin.